

YIRIK SOLIQ TO'LOVCHILARNI SOLIQQA TORTISH MEKANIZMINING AMALDAGI HOLATI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI

Qo'shaqov Asrorjon Nematjonovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Yirik soliq to'lovchilarning soliq ma'murchiligini amalga oshirishning xorij tajribasi tahlil qilingan bo'lib, bu tahlillar natijasida O'zbekiston Respublikasi soliq qonunchiligini takomillashtirish masalalari, Yirik soliq to'lovchilarning soliq ma'murchiligini yanada takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: soliq, byudjet siyosati, byudjet, soliq ma'murchiligi, yirik soliq to'lovchilar, xorij tajribasi, soliq salohiyati, soliq yuki, soliq stavkasi, soliq imtiyozlari.

Аннотация: В данной статье проанализирован зарубежный опыт налогового администрирования крупных налогоплательщиков, и в результате этих анализов были разработаны вопросы совершенствования налогового законодательства Республики Узбекистан, предложения и рекомендации по дальнейшему совершенствованию налогового администрирования крупных налогоплательщиков.

Ключевые слова: налог, бюджетная политика, бюджет, налоговое администрирование, крупные налогоплательщики, зарубежный опыт, налоговый потенциал, налоговая нагрузка, налоговая ставка, налоговые льготы.

Annotation: This article analyzes the foreign experience of tax administration of large taxpayers, and as a result of these analyzes, issues of improving the tax legislation of the Republic of Uzbekistan, proposals and recommendations for further improving the tax administration of large taxpayers were developed.

Key words: tax, budget policy, budget, tax administration, large taxpayers, foreign experience, tax potential, tax burden, tax rate, tax benefits.

Kirish: Jahon amaliyotida yirik soliq to'lovchilarning soliq ma'murchiligini takomillashtirish bo'yicha qator ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirilmoqda. Xususan, yirik soliq to'lovchilar faoliyati samaradorligini baholash ko'rsatkichlarini aniqlash, yirik soliq to'lovchilarga audit va soliq nazoratini qo'llab-quvvatlash majburiyatini to'liq bajarish, nazorat funktsiyalarini tarmoqlar bo'yicha tuzilmalash, qoidalarga birgalikda rioya etish tamoyilini amalga oshirish, soliq to'lashdan bo'yin tovlashni to'xtatishning samarali mexanizmini ishlab chiqish masalalarining dolzarbligi ularning etarlicha nazariy va normativ jihatdan o'rganilmaganligi va zamonaviy iqtisodiy sharoitda yuqori amaliy ahamiyati bu boradagi tadqiqotlarning ustuvor

yo‘nalishlaridan hisoblanadi.

Adabiyotlar sharhi

Yirik soliq to‘lovchilar soliq ma‘murchiligini takomillashtirish yuzasidan bir qancha olimlar tomonidan ilmiy tadqiqotlar olib borilgan bo‘lib, ushbu mavzu keng miqyosdagi dolzarb tadqiqot yo‘nalishi sifatida o‘rganilib kelinmoqda.

Jumladan, avstraliyalik olimlar Z.Akhand va P.Grob [1,2] tomonidan rivojlanayotgan mamlakatlarda yirik soliq to‘lovchilarni boshqaruvini maxsus bo‘linmalar tomonidan nazorat qilish tizimini joriy etishda erishilgan yutuqlar va kamchiliklar tadqiq qilingan. M.Ahmed [3] tadqiqotida yirik soliq to‘lovchilar soliq ma‘muriyatchiligiga oid Pokiston tajribasi keltirilgan.

Rossiyalik olimlardan A.Yunak [4] tadqiqotlarida yirik soliq to‘lovchi tushunchasini belgilovchi normalar, yuridik shaxslarni belgilangan soliq to‘lovchilar toifasiga tasniflash mezonlari, soliq nazorati va hisobining o‘ziga xos xususiyatlari, qonunlar bilan belgilanishi lozimligi asoslagan. O.Sitnikova [5] Rossiya Federatsiyasi misolida konsolidatsiyalashgan soliq to‘lovchini soliqqa tortish bo‘yicha amaliyotidagi kamchiliklarni aniqlagan. S.Pepelyaev [6] tadqiqotlarida soliq organlari faoliyatidagi huquqiy va funksional kamchiliklarga baho berilgan. Shu bilan birga, yirik soliq to‘lovchilarning soliq ma‘muriyatchiligi oid tadqiqotlar kengayib, A.Karataev [7,8], G.Aytxojina [9], M.Belugina [10] kabi tadqiqotchilar yirik soliq to‘lovchilarning o‘ziga xos xususiyatlarini ilmiy-amaliy jihatdan tadqiq qilgan. L.Goncharenko [11] tadqiqotlarida yirik soliq to‘lovchilarning transfer narxlardan foydalanish muammolarini tadqiq qilgan, K.Novosyolov [12] va L.Korolevalar [13] soliq to‘lovchilarning konsolidatsiyalashgan alohida tuzilmasini joriy etilishining muhimligini ilmiy asoslagan.


Tahlil va natijalar muhokamasi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Davlat soliq xizmati organlari faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2018-yil 26-iyundagi PQ-3802-son qarori hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 17-apreldagi “Davlat soliq xizmati organlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 320-sonli qarori alohida ahamiyat kasb etadi. Bu nizomlarda Davlat soliq qo‘mitasining asosiy vazifalari sifatida “soliq to‘lovchilar o‘z soliq majburiyatlarini ixtiyoriy bajarishi uchun maqbul shart-sharoitlar yaratish, har bir xodim tomonidan “Soliq xizmati –insofli soliq to‘lovchilarning ishonchli hamkori” degan maqsadli vazifani so‘zsiz bajarish, soliq to‘lovchilarning huquqiy madaniyatini oshirish bo‘yicha ishlarni amalga oshirish, soliqqa oid huquqbuzarliklarning profilaktikasi, ularni aniqlash va bartaraf etish bo‘yicha kompleks tadbirlarni bajarish, soliq to‘lovchilarga muloqotsiz elektron xizmat ko‘rsatishga to‘liq o‘tish yo‘li orqali soliq to‘lovchilar bilan ishlashni takomillashtirish”¹ kabilarning yuklanishi soliq

¹ Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2019 йил 17 апрелдаги “Давлат солиқ хизмати органлари

xizmati organlari tomonidan soliq ma'murchiligining yangi shakl va mazmundagi muhim yo'nalishlari belgilab berildi.

O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi tarkibiga kiruvchi institutsional tuzilma - Yirik soliq to'lovchilar bo'yicha hududlararo davlat soliq inspeksiyasi tuzildi va unga asosiy vazifa sifatida joylashgan joyi va amalga oshirayotgan faoliyatidan qat'iy nazar, yirik soliq to'lovchilarning soliq ma'muriyatchiligini amalga oshirish vazifasi yuklandi.



1-rasm. Yirik soliq to'lovchilar bo'yicha hududlararo davlat soliq inspeksiyasi soliq ma'murchiligi bo'yicha funktsiya va vazifalari²

фаолиятини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги 320-сонли қарори

² Амалдаги қонунлиқ ҳужжатлари асосида муаллиф томонидан тузилган.

Keltirilgan rasmdan ko‘rish mumkinki, yirik soliq to‘lovchilar bo‘yicha hududlararo davlat soliq inspeksiyasi soliq ma‘murchiligi bo‘yicha funktsiya va vazifalari ularning soliq to‘lovchilarga nisbatan soliqqa tortishning adolatlilik tamoyillarini qo‘llagan holda, ularga yuklatilgan soliq majburiyatlarining qonun doirasida bajarilishini ta‘minlash hamda insofli soliq to‘lovchining ishonchli hamkoriga aylanishdek muhim strategik vazifalar belgilab berilgan.

Agar, yirik soliq to‘lovchilar bo‘yicha hududlararo davlat soliq inspeksiyasi va uning hududiy bo‘linmalariga soliq ma‘murchiligi doirasida yuqorida keltirilgan vazifa va funktsiyalarning oxirgi 2019-2021-yillardagi ijrosining holatini tahlil etadigan bo‘lsak, quyidagi natijaviy ko‘rsatkichlarga yuzaga kelganligini ko‘rish mumkin.

Yirik soliq to‘lovchilar bo‘yicha hududlararo soliq inspeksiyasi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 26-iyundagi PQ-3802-son qaroriga asosan tashkil etilgan. Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 17-apreldagi 320-son qarori bilan Hududlararo inspeksiya Nizomi tasdiqlagan va amalda o‘z faoliyatini 2019-yil 1-avgustdan boshlagan. Yirik soliq to‘lovchilar ro‘yxati Adliya vazirligida 2019-yil 12-iyulda tasdiqlangan “Yuridik shaxslarni yirik soliq to‘lovchilar toifasiga kiritish mezonlarini belgilash to‘g‘risida” Nizomga asosan shakllantirilgan.

Bugungi kunda Hududlararo inspeksiya tomonidan **jami 901 ta** yirik va o‘ta yirik soliq to‘lovchilar ma‘muriyatchiligi amalga oshirilmoqda. Har bir soliq to‘lovchiga mas‘ul xodim biriktirilgan holda “korxonabay” ish olib borilmoqda.

Hududlararo inspeksiya ma‘murchiligidagi soliq to‘lovchilardan yig‘ilgan soliqlarning jami soliq tushumlaridagi ulushi 2022-2023-yillarda **59 foizni**, 2024-yilda **62 foizni** tashkil etmoqda.

Hududlararo inspeksiyaning tuzilmasi va kadrlar tarkibi bo‘yicha:

Hududlararo inspeksiyada boshliq, boshliqning birinchi o‘rinbosari, 2 ta boshliq o‘rinbosari shtatlari hamda 11 ta bo‘lim va 18 ta sho‘ba mavjud bo‘lib, jami shtat birliklar soni 207 ta tashkil etmoqda.

Davlat budjetiga soliq tushumlarini ta‘minlash bo‘yicha:

2023-yil uchun belgilangan **98,9 trln.so‘m** prognoz ko‘rsatkichlari **97,7 trln.so‘mga** (99,0%) bajarilgan. Tushum 2022-yilga (88,3 trln.so‘m) nisbatan **110,6 foizga** o‘sgan. *Korxonalar murojaatiga (1 871 ta) asosan 5 098 ta holatda ortiqcha to‘lov hisobidan 648,9 mlrd.so‘m boshqa soliq turlariga singdirilgan hamda 1 936 ta holatda 1 229,8 mlrd.so‘m korxonalar hisobraqamiga qaytarilgan.*

2024-yil uchun belgilangan **123,1 trln.so‘m** prognoz ko‘rsatkichlari **123,3 trln.so‘mga** (100%) bajarilgan. Tushum 2023-yilga (97,7 trln.so‘m) nisbatan 26,2 foizga o‘sgan. *Korxonalar murojaatiga (3 103 ta) asosan holatda ortiqcha to‘lov hisobidan 740 mlrd.so‘m boshqa soliq turlariga singdirilgan hamda 2 779 ta holatda 1 081,3 mlrd.so‘m korxonalar hisobraqamiga qaytarilgan.*

2025-yil uchun belgilangan **133,5 trln.so‘m** prognoz 9 oy yakuni bilan

57,7 foizga (86,5 trln.so'mga), shu bilan birga, 9 oylik **84,3 trln.so'm** prognoz **102,7 foizga** (86,5 trln.so'mga) bajarildi. Korxonalar murojaatiga va Soliq kodeksi 103-105-moddalariga asosan 1 321 ta holatda ortiqcha to'lov hisobidan 1 100,0 mlrd.so'm boshqa soliq turlariga singdirildi hamda 1 132 ta holatda 862,2 mlrd.so'm korxonalar hisob raqamiga qaytarildi.

O'ta yirik soliq to'lovchilar ma'muriyatchiligi bo'yicha:

2024-yil 1-apreldan o'ta yirik soliq to'lovchilar ma'muriyatchiligi alohida amalga oshirilmoqda. Bunday korxonalar soni **150 tani** tashkil etmoqda.

2024-yil aprel-dekabr oylari uchun o'ta yirik soliq to'lovchilar bo'yicha belgilangan **78,0 trln.so'm** tushum rejasi **78,7 trln.so'mga** (100,8 %) bajarilgan.

Shuningdek, o'ta yirik soliq to'lovchilardan 105 929 ta hisobot va 26 155 ta aniqlashtirilgan hisobot olingan. Jumladan, QQS bo'yicha 28 592 ta, foyda solig'i bo'yicha 11 842 ta, jismoniy shaxslar daromad solig'i bo'yicha 41 213 ta.

Soliq bazasini kengaytirish maqsadida, hisobotlar tahlil qilinib, aniqlangan tafovutlarni bartaraf etish yoki asoslantiruvchi hujjat taqdim etish bo'yicha xabarnomalar yuborilib **0,9 trln.so'mlik** qayta hisobotlar olingan.

2025-yil 9 oyi uchun o'ta yirik soliq to'lovchilar bo'yicha belgilangan **73,5 trln.so'm** tushum rejasi **65,4 trln.so'mga** (89 %) bajarilgan. Shuningdek, 52 171 ta hisobot va 11 296 ta aniqlashtirilgan hisobot olindi. Jumladan, QQS bo'yicha 11 224 ta, foyda solig'i bo'yicha 5 872 ta, jismoniy shaxslar daromad solig'i bo'yicha 21 682 ta. Soliq bazasini kengaytirish maqsadida, hisobotlar tahlil qilinib, aniqlangan tafovutlarni bartaraf etish yoki asoslantiruvchi hujjat taqdim etish bo'yicha xabarnomalar yuborilib **2,3 trln.so'mlik** qayta hisobotlar olindi. Avtomatlashtirilgan elektron axborot tizimi orqali korxonalardan hisobotlarni qabul qilish, tushuntirish, amaliy yorlam berish kabi turli mavzularda kelib tushgan **1 206 ta** murojaat belgilangan muddatlarda ko'rib chiqilmoqda. Hozirgacha 1 089 ta murojaatda so'ralgan masalalar bo'yicha korxonalarga javoblar yuborilgan va qolgan murojaatlar (*muddati bor*) o'rganib chiqilmoqda.

Yirik soliq to'lovchilarga xizmat ko'rsatish bo'yicha:

Yirik soliq to'lovchilar soni 2023-yilda **966 ta**, 2024-yilda **2 189 ta** va 2025-yilda **901 tani** tashkil etmoqda.

2025-yil 9 oyida yirik soliq to'lovchilarning tovar aylanmasi jami 316,3 trln.so'mni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga (261,8 mlrd.so'm) nisbatan 54,4 trln.so'mga (121 %) o'sgan. Soliq to'lovlari o'tgan 9 oyda 11,1 trln.so'mni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga (9,2 trln.so'm) nisbatan 1,9 trln.so'mga (120 %) o'sgan. Shu bilan birga, qurilish va savdo sohasida soliq tushumlari o'tgan yilning mos davriga nisbatan kamaygan. Tahlilarga ko'ra, qurilish sohasida bajarilgan ishlar hajmi haqiqatda kamaygan va shuning hisobiga soliq tushumlari kamaygan. Savdo sohasidagi korxonalarda tovar aylanmasi oshishiga qaramasdan soliq tushumlari

kamaygan.

Xavfni va transfert narxlarini tahlil qilish bo'yicha:

2023-yilda soliq nazorati tadbirlarini o'tkazish uchun xavf summasi 1 260,6 mlrd.so'mni tashkil etgan 171 ta nomzod ro'yxati shakllantirilgan. Jumladan, 27 ta soliq auditiga nomzodlar bo'yicha 89,9 mlrd.so'm, 136 ta kameral tekshiruvga nomzodlar bo'yicha 1 151,7 mlrd.so'm va 8 ta sayyor tekshiruvga nomzodlar bo'yicha 19,6 mlrd.so'm soliq xavfi aniqlangan. Soliq nazorati tadbirlari natijasida 2 170,6 mlrd.so'm yoki xavf summasiga nisbatan 910 mlrd.so'm ko'p qo'shimcha soliq hisoblangan.

2024-yilda soliq nazorati tadbirlarini o'tkazish uchun havf summasi 3 438,5 mlrd.so'm bo'lgan 406 ta nomzod ro'yxati shakllantirilgan. Jumladan, 98 ta soliq auditiga nomzodlar bo'yicha 1 401,6 mlrd.so'm, 221 ta kameral tekshiruvga nomzodlar bo'yicha 1 734,2 mlrd.so'm va 87 ta sayyor tekshiruvga nomzodlar bo'yicha 302,7 mlrd.so'm soliq xavfi aniqlangan. Soliq nazorati tadbirlari natijasida 2 631,7 mlrd.so'm yoki xavf summasidan 806,8 mlrd.so'm kam qo'shimcha soliqlar hisoblangan.

2025 yil 9 oyida soliq nazorati tadbirlarini o'tkazish uchun xavf summasi 3 038,7 mlrd.so'mni tashkil 322 ta nomzod ro'yxati shakllantirilgan. Jumladan, 84 ta soliq auditiga nomzodlar bo'yicha 1 770,0 mlrd.so'm, 178 ta kameral tekshiruvga nomzodlar bo'yicha 1 193,1 mlrd.so'm va 60 ta sayyor tekshiruvga nomzodlar bo'yicha 75,5 mlrd.so'm soliq xavfi aniqlangan. Soliq nazorati tadbirlari natijasida 5 135,3 mlrd.so'm yoki xavf summasidan 2 096,6 mlrd.so'm ko'p qo'shimcha soliqlar hisoblangan.

Soliq to'lovchilar soliq nazorati bo'yicha:

2024-yil avgust oyidan o'ta yirik soliq to'lovchilar soliq nazorati alohida amalga oshirilmoqda. Bunday korxonalar soni **150 tani** tashkil etadi.

Kameral soliq tekshiruvlari bo'yicha:

2024-yil avgust-dekabr oylarida jami xavf summasi 51,1 mlrd.so'm bo'lgan 23 ta soliq to'lovchilarda, **2025-yil 9 oyida** jami xavf summasi 1 619,7 mlrd.so'm bo'lgan 52 ta soliq to'lovchilarda kameral soliq tekshiruvlari tashkil etilgan.

Shundan, **74 ta** korxona bo'yicha kameral tekshiruvlar yakunlangan va taqdim etilgan soliq hisobotlarida jami 4 126,6 mlrd.so'm tafovut (xatoliklar) aniqlangan. Jami 363,2 mlrd.so'mlik qayta hisobotlar olinib, 3 475,9 mlrd.so'm tafovutlar bo'yicha taqdim etilgan asoslar yetarli emas deb topilgan va soliq auditi tayinlash bo'yicha xulosalar rasmiylashtirilgan.

Avtokameral tahlil natijalari bo'yicha:

2024-yil avgust-dekabr oylarida 262 ta holat bo'yicha aniqlangan 829,4 mlrd.so'm, **2025-yil 9 oyida** 505 ta holat bo'yicha aniqlangan 123 353,3 mlrd.so'm tafovutlar bartaraf etilib, belgilangan tartibda xulosalar

rasmiylashtirildi.

Sayyor soliq tekshiruvlari bo'yicha:

2024-yil avgust-dekabr oylarida 2 ta va **2025-yil 9 oyida** 2 ta korxonada sayyor tekshiruvlar o'tkazilib, mahsulot kamomadi yoki ortiqchaligi aniqlanmagan, soliq va moliyaviy jarimalar hisoblanmagan.

Soliq auditi bo'yicha:

2024-yil avgust-dekabr oylarida 25 ta korxonada o'tkazilgan soliq auditlarida 1 928,4 mlrd.so'm va **2025-yil 9 oyida** 35 ta korxonada o'tkazilgan soliq auditlarida 1 320,0 mlrd.so'm qo'shimcha soliqlar hisoblangan.

Yirik soliq to'lovchilar soliq nazorati bo'yicha:

2023-yilda 583 ta, **2024-yilda** 1 200 ta va **2025-yil 9 oyida** 979 ta soliq tekshiruvlari o'tkazilgan.

Soliq tekshiruvlari natijasida **2023-yilda** 3 044,1 mlrd.so'm, **2024-yilda** 2 272,2 mlrd.so'm va **2025-yil 9 oyida** 3 721,5 mlrd.so'm soliqlar qo'shimcha hisoblangan. Shundan, **2023-yilda** 599,5 mlrd.so'm, **2024-yilda** 78,5 mlrd.so'm va **2025-yil 9 oyida** 91,7 mlrd.so'm undirilgan. Shuningdek, **2023-yilda** 863,4 mlrd.so'm, **2024-yilda** 89,6 mlrd.so'm va **2025-yil 9 oyida** 98,5 mlrd.so'm ortiqcha to'lov qisqartirilgan.

Kameral soliq tekshiruvlari bo'yicha:

2023-yilda 327 ta, **2024-yilda** 795 ta va **2025-yil 9 oyida** 807 ta kameral soliq tekshiruvlari o'tkazilgan. Kameral soliq tekshiruvlar natijasida **2023-yilda** 1 459,1 mlrd.so'm, **2024-yilda** 182,3 mlrd.so'm va **2025-yil 9 oyida** 130,6 mlrd.so'm soliqlar qo'shimcha hisoblangan. Shundan, **2023-yilda** 590,8 mlrd.so'm, **2024-yilda** 55,2 mlrd.so'm va **2025-yil 9 oyida** 36,6 mlrd.so'm undirilgan. Shuningdek, **2023-yilda** 862,7 mlrd.so'm, **2024-yilda** 75,9 mlrd.so'm va **2025-yil 9 oyida** 92,9 mlrd.so'm ortiqcha to'lov qisqartirilgan.

Sayyor soliq tekshiruvlar bo'yicha:

2023-yilda 39 ta, **2024-yilda** 119 ta va **2025-yil 9 oyida** 57 ta sayyor soliq tekshiruvlari o'tkazilgan. Sayyor tekshiruvlar natijasida **2023-yilda** 10,4 mlrd.so'm, **2024-yilda** 512,3 mlrd.so'm va **2025-yil 9 oyida** 130,4 mlrd.so'm qo'shimcha soliq va moliyaviy jarimalar hisoblangan. Shundan, **2023-yilda** 8,7 mlrd.so'm, **2024-yilda** 23,3 mlrd.so'm va **2025-yil 9 oyida** 55,1 mlrd.so'm undirilgan. Shuningdek, **2023-yilda** 0,7 mlrd.so'm, **2024-yilda** 13,7 mlrd.so'm va **2025-yil 9 oyida** 5,6 mlrd.so'm ortiqcha to'lov qisqartirilgan.

Soliq auditi bo'yicha:

2023-yilda 217 ta, **2024-yilda** 286 ta va **2025-yil 9 oyida** 115 ta soliq auditi o'tkazilgan. Soliq auditlari natijasida **2023-yilda** 1 574,6 mlrd.so'm, **2024-yilda** 1 577,6 mlrd.so'm va **2025-yil 9 oyida** 3 460,5 mlrd.so'm soliqlar qo'shimcha hisoblangan.

Qo'shilgan qiymat solig'i ma'muriyatchiligi bo'yicha:

Qo'shilgan qiymat solig'i masalalari bo'yicha 2023-2025-yillarda jami 3 087 ta (2 423 ta ijro va 664 ta ma'lumot uchun) murojaatlar tushgan bo'lib, shundan 2 413 tasi bo'yicha ko'rsatilgan masalalar hal etilgan va qolganlari (ijro muddati bor) ko'rib chiqilmoqda.

Jumladan, Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 14-avgustdagi 489-son qarori bilan tasdiqlangan Nizom talablariga muvofiq 2023-2025-yillar davomida 485 ta soliq to'lovchilar tomonidan berilgan 4 444 ta 57 907,7 mlrd.so'mlik murojaatlar ko'rib chiqilib, 331 ta soliq to'lovchilarning 1 565 ta arizasi bo'yicha 30 898,5 mlrd.so'm (146 tasi "AAA" reyting - 890,0 mlrd.so'm) qoplab berilgan. Shuningdek, 152 ta soliq to'lovchining 2 875 ta arizasi (26 851,0 mlrd.so'm) xato va kamchiliklari bo'lgani sababli rad etilgan va 2 ta ariza o'rganib chiqilmoqda.

Xususan, 2025 yil 9 oyida 85 ta korxona tomonidan berilgan 457 ta ariza (12 246,0 mlrd.so'mlik) ko'rib chiqilib, 57 ta korxonaning 197 ta arizasi bo'yicha 7 381 mlrd.so'm qoplab berilgan, 26 ta korxonaning 258 ta arizalari kamchilik aniqlanganligi (Nizomga asosan ariza ilovalari to'liq taqdim etilmagan va boshqa) sababli qaytarilgan (rad etilgan) va 2 ta ariza ko'rib chiqilmoqda.

Budjetga qo'shimcha manbaalarni jalb qilish bo'yicha tahlillar natijasida 2025-yil 9 oyida 52 ta korxonadan 757,8mlrd.so'mga qayta hisobotlar olindi va 388,6 mlrd.so'mi ortiqcha to'lov hisobidan qoplanib, 369,2 mlrd.so'mi undirilgan.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 30-dekabrda PQ-471-son qarori 3-bandi talablariga muvofiq, tovarlarni import qilishda va tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishda to'lanadigan QQS summalarini o'zaro hisobga olish imkoniyatidan doimiy foydalanish yuzasidan import qiluvchi har bir soliq to'lovchi bilan doimiy ravishda ish olib borilmoqda.

Tashqi savdo operatsiyalari monitoringi bo'yicha:

Eksport va import bo'yicha tashqi manbalardan olingan ma'lumotlar tahliliga asosan davlat byudjetiga jami 3 483,3 mlrd.so'm - 2023 yilda 931 mlrd.so'm, 2024 yilda 1593,9 mlrd.so'm va 2025 yil 9 oyida 958,4 mlrd.so'm qo'shimcha mablag'lar aniqlangan. Jumladan, import qilingan xizmatlar (ishlar, royalti) uchun QQS bo'yicha 1 241,7 mlrd.so'm (2023-yilda 402,1 mlrd.so'm, 2024-yilda 509,9 mlrd.so'm, 2025-yil 9 oyida 329,7 mlrd.so'm), norezidentlar daromadidan soliq agenti tomonidan to'lov manbaidan ushlab qolinadigan foyda solig'i bo'yicha 2 241,6 mlrd.so'm (2023-yilda 528,9 mlrd.so'm, 2024-yilda 1 084,0 mlrd.so'm, 2025-yil 9 oyida 628,7 mlrd.so'm) qo'shimcha manba aniqlangan.

Muddati o'tgan debitor qarzdorliklarni bartaraf qilish bo'yicha:

2023-2024-yillar va 2025 yil 9 oyida 1 808,5 mln.dollar (2023-yilda 141,8 mln.dollar, 2024-yilda 1254,1 mln.dollar, 2025-yil 9 oyida 412,6 mln.dollar) muddati o'tgan debitor qarzdorlik bartaraf etilgan. 210 ta holatda (2023-yilda 50 ta,

2024-yilda 27 ta, 2025-yil 9 oyida 133 ta) muddati o'tgan debitor qarzдорliklar uchun jami 100,3 mlrd.so'm (2023-yilda 0,85 mlrd.so'm, 2024-yilda 65,39 mlrd.so'm, 2025-yil 9 oyida 34,06 mlrd.so'm) jarimalar qo'llanilgan.

Elektron shaklda xizmatlar ko'rsatuvchi xorijiy korxonalar faoliyatini monitoring qilish bo'yicha:

2024-yil avgust oyidan elektron shaklda xizmatlar ko'rsatuvchi xorijiy korxonalar faoliyatini monitoring qilish yo'lga qo'yilgan. Bunday korxonalar soni **000 tani** tashkil etmoqda. Ro'yxatdan o'tmasdan faoliyat ko'rsatayotgan chet el korxonalariga elektron pochta orqali 2024 yilda **37 ta**, 2025 yil 9 oyida **111 ta** xabarnomalar yuborilgan. Natijada 2024 yil avgust-dekabr oylarida **3 ta**, 2025 yil 9 oyida **16 ta** elektron shaklda xizmatlar ko'rsatuvchi xorijiy kompaniyalar QQS to'lovchisi sifatida **ro'yxatdan o'tkazildi**. Tijorat banklari taqdim etgan ma'lumotlar asosida o'tkazilgan tahlil natijasida **13 ta** kompaniyaga jami **11,3 mlrd.so'm** qo'shimcha soliq va penyalari hisoblanib, **10,4 mlrd.so'mi** davlat byudjetiga undirildi. Jumladan, 2024 yilda 3 ta kompaniyaga 0,60 mlrd.so'm qo'shimcha soliq va 0,26 mlrd.so'm penya hisoblangan bo'lsa, 2025 yil 9 oyida 10 ta kompaniyaga 8,6 mlrd.so'm qo'shimcha soliq va 1,3 mlrd.so'm penya hisoblanib, byudjetga undirildi.

Soliq qarzini qisqartirish bo'yicha:

2023-yil 1 yanvar holatiga soliq qarzi 1 034 mlrd.so'mni tashkil etib, 2022 yil boshiga (1 070 mlrd.so'm) nisbatan 36 mlrd.so'mga kamaygan.

Soliq kodeksi 115-116-moddalariga asosan to'lanmagan 86 656 mlrd.so'm soliq qarzi bo'yicha 25 790 ta talabnomalar elektron tarzda yuborilgan.

Soliq kodeksi 114-moddasiga asosan 1 534 ta qarorlar bo'yicha 352 ta korxonaning 6 309,3 mlrd.so'mlik qarzi uchun noturar bino-inshoatlari hamda avtotransport vositalari xatlanib, 4 187 mlrd.so'm soliq qarzi undirilgan.

Soliq kodeksi 123-moddasiga muvofiq tan olingan soliq qarzini mol-mulki hisobidan undirish uchun MIBga 222 ta korxonaning 1 997 mlrd.so'm qarzi bo'yicha 1 853 ta qarorlar yuborilgan va majburiy ijro ishlari qo'zg'atilgan.

2024-yil 1 yanvar holatiga soliq qarzi 985,3 mlrd.so'mni tashkil etib, 2023-yil boshiga (1 034,0 mlrd.so'm) nisbatan 48,7 mlrd.so'mga kamaygan.

Soliq kodeksi 115-116-moddalariga asosan to'lanmagan 63 511,1 mlrd.so'm soliq qarzini uzish bo'yicha 29 222 ta talabnoma elektron tarzda yuborilgan.

Soliq kodeksi 114-moddasiga asosan 5 216 ta qarorlar bo'yicha 587 ta korxonaning 15 972,4 mlrd.so'm soliq qarzi uchun noturar bino-inshoatlari hamda avtotransport vositalari xatlanib, 10 711 mlrd.so'm soliq qarzi undirilgan.

Soliq kodeksi 123-moddasiga muvofiq tan olingan soliq qarzini mol-mulki hisobidan undirish uchun MIBga 331 ta korxonaning 3 281,9 mlrd.so'm qarzi bo'yicha 2 552 ta qarorlar yuborilgan va majburiy ijro ishlari qo'zg'atilgan.

2025-yil 1 yanvar holatiga soliq qarzi 1 259,1 mlrd.so‘mni tashkil etib, 2024 yil boshiga (985,3 mlrd.so‘m) nisbatan 273,8 mlrd.so‘mga oshgan.

Soliq kodeksi 115-116-moddalariga asosan to‘lanmagan 39 637,1 mlrd.so‘m soliq qarzini uzish bo‘yicha 9 992 ta talabnoma elektron tarzda yuborilgan.

Soliq kodeksi 114-moddasiga asosan 1 379 ta qarorlar bo‘yicha 139 ta korxonaning 5 532,1 mlrd.so‘m soliq qarzi uchun noturar bino-inshoatlari hamda avtotransport vositalari xatlanib, 4 292,7 mlrd.so‘m soliq qarzi undirildi.

Shuningdek, 47 ta soliq qarzi mavjud korxonalarning balansida mavjud mol-mulkarga nisbatan elektron ta‘qiq qo‘yildi.

Soliq kodeksi 123-moddasiga muvofiq tan olingan soliq qarzini mol-mulki hisobidan undirish uchun MIBga 68 ta korxonaning 1 069,6 mlrd.so‘m qarzi bo‘yicha 595 ta qarorlar yuborilgan va majburiy ijro ishlari qo‘zg‘atilgan.

Bankrotlik ishi doirasida 7 ta korxonaning kreditorlar yig‘ilishida qatnashildi.

Soliq qonunchiligi bo‘yicha maslahat va targ‘ibot-tashviqot ishlari:

Soliq qonunchiligidagi yangiliklar bo‘yicha **2023-yilda** 68 ta, **2024 yilda** 109 ta, **2025-yil 9 oyida** 83 ta targ‘ibot-tashviqot ishlari, ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarda 2023-yilda 32 ta, 2024-yilda 34 ta, 2025-yil 9 oyida 17 ta chiqishlar qilindi.

Bundan tashqari, ijtimoiy tarmoqlarda 2023 yilda 67 marta, 2024 yilda 55 marta, 2025-yil 9 oyida 45 marta ko‘p uchraydigan savol-javoblar saytga joylashtirildi. 2023-yilda 633 ta, 2024-yilda 445 ta, 2025-yil 9 oyida 331 ta murojaatlar bo‘yicha soliq qonunchiligi doirasida tushuntirish xatlari yuborildi. Shuningdek, 2023-yilda 73 ta, 2024-yilda 46 ta, 2025-yil 9 oyida 39 ta telefon orqali murojaatlarga soliq qonunchiligi bo‘yicha tushuntirish berildi. Yirik soliq to‘lovchilar faoliyatidagi muammolarni o‘rganish asosida Soliq kodeksi normalari va soliq ma‘murchiligini takomillashtirish bo‘yicha takliflar 2023-yilda 28 ta, 2024-yilda 20 ta va 2025-yil 9 oyida 16 ta xat bilan Soliq qo‘mitasiga yuborildi.

Xulosa va takliflar:

1. Yirik soliq to‘lovchilar tomonidan tashkil qilingan o‘zaro aloqador korxonalarga soliq bazasining (foydaning) ko‘chirilishi holatlari inspeksiyaga soliq tushumlarini o‘z vaqtida byudjetga tushirish va tushumlarni ko‘paytirishda, soliq ma‘murchiligini samarali yuritishga salbiy ta‘sir ko‘rsatmoqda.

Taklif: Bunday holatlarni inobatga olib, yirik soliq to‘lovchilar bilan o‘zaro aloqador korxonalarning soliq ma‘murchiligini bir joyda yuritish maqsadida, “Yuridik shaxslarni yirik soliq to‘lovchilar toifasiga kiritishning mezonlarini belgilash to‘g‘risidagi Nizom”ga qo‘shimcha kiritish va barcha o‘zaro aloqador korxonalar soliq ma‘murchiligini 2026-yil 1-yanvardan inspeksiyaga o‘tkazish maqsadga muvofiq bo‘lar edi.

2. Joriy yil oxiriga qadar savdo va qurilish sohalarida:

soha profilini yaratish - soha ko'rsatkichlarini jamlash va benchmarking uchun mezonlar ishlab chiqish;

sohada uchrayotgan xavflarni aniqlash - soliq tushumlari kamayishiga olib kelayotgan omillarni o'rganish va ularni tahlil qilish;

aniqlagan xavflarni bartaraf etish chora-tadbirlari - xavfni ko'rib chiqish, soliq auditi va sayyor soliq tekshiruvlarini tashkil qilish choralari ishlab chiqiladi.

Taklif: Bilvosita audit instrumentini soliq qonunchiligiga kiritish, soliq organiga soliq to'lovchining birlamchi hujjatlariga ishonchi bo'lmagan paytda, hisob-kitoblardan kelib chiqqan holda soliq hisoblash imkoniyatini berish maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Akhand Z. Understanding the effects of coercive and persuasive tax compliance tools on large corporate taxpayers [online] // Journal of Australian Taxation. 2014. Vol. 16, No. 2. P. 206–258.

2. Grob P. Tax governance and justified trust [online] // Taxation in Australia. 2017. Vol. 52, No. 5. P. 261–265.

3. Юнак, А.А.. Проблемы правового регулирования налогового контроля и учета крупнейших налогоплательщиков. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидат юридических наук. Москва 2009.

4. Ситникова Ольга Владимировна. Совершенствование налогообложения крупнейших консолидированных налогоплательщиков. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидат экономических наук. Москва 2012.

6. Каратаев А.С. Налоговая политика государства в отношении крупнейших налогоплательщиков // Инновационное развитие экономики. 2011. № 2. С. 23–32.

7. Айтхожина Г.С. Особенности планирования выездных налоговых проверок крупнейших налогоплательщиков // Вестник Омского университета. Серия: Экономика. 2011. № 1. С. 190–192.

8. Белугина М.В. Налоговое администрирование крупнейших налогоплательщиков: проблемы, пути совершенствования // Инновационное развитие экономики. 2015. № 5 (29). С. 27–30.

9. Жумаев Ш. Йирик солиқ тўловчиларга оид солиқ маъмурчилигини такомиллаштириш масалалари: и.ф.д (PhD) илмий даражасини олиш учун ёзилган дисс. автореферати. – Тошкент, 2023 21-26-бетлари

10. Ўзбекистон Республикаси Солиқ кодекси- Тошкент: Гафур Гулом нашриёт уйи 2020.- 640 б.